

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
FIZIKA-INFORMATIKA FAKULTETI
INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI
INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASI TA’LIM YO‘NALISHI

Bitiruv malakaviy ishi

MAVZU: Informatikada o‘quvchilar bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan
pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish

Bajardi: _____

Rahbar: _____

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. TA'LIM JARAYONIDA BILISH FAOLIYATI.....	4
I.1. BILISH FAOLIYATI	4
I.2. O'QUVCHINING BILISH FAOLIYATI	7
I.3. INFORMATIKADAN O'QUVCHILARING BILISH FAOLIYATI	13
II- BOB. INFORMATIKADA O'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI FAOLLSHTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI LOYIHALASHTIRISH	22
II.1. INFORMATIKADA O'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI FAOLLSHTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	22
II.2. INFORMATIKA DARSLIGIDAGI BA'ZI MAVZULARNI LOYIHALASHTIRISH	38
XULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:	57

KIRISH

O'zbekiston tom ma'noda yoshlar mamlakati. Mamlakatimiz hayotining kelajakdagi taraqqiyotida yoshlarning o'rni beqiyos. Axir O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek: "O'zbekiston kelajagi – yoshlar qo'lida". Buning uchun mamlakatimizda qator islohotlar, yoshlarimiz uchun imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida yoshlar orasida odob- axloqni buzishga, shu jumladan, xayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot kilishga qaratilgan har qanday xatti-xarakat man etilishi belgilab qo'yilgan.

Maktab o'quvchilar bilim olish jarayonida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan ham maktablarda ayniqsa informatika, ingliz tili va shu kabi fanlari interfaol o'qitish uchun zarur texnika vositalari masalan: kompyuterlar, interaktiv doskalar bilan ta'minlanmoqda. Hozirgi vaqtda o'quvchilari ayniqsa informatika faniga qiziqtirish, diqqatini jalb etish uchun pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish kerak. Ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchi shaxsiga dars jarayonida ko'proq e'tibor berish maqsadga muvofiq.

Bitiruv malakaviy ishda bilish faoliyati, o'quvchining bilish faoliyati, informatika fanidan o'quvchilarning bilish faoliyati, informatika fanidan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish masalalari ilgari surilgan va umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi informatika darsligidan ikkita mavzu loyihalashtirilgan holda o'quvchilarga etkazib berilishi va ularda mavzuni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, bilish faoliyatini faollashtiruvchi omillar qiyosiy tahlil qilingan.

Ushbu bitiruv malakaviy ish kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. TA'LIM JARAYONIDA BILISH FAOLIYATI

I.1. BILISH FAOLIYATI

Inson o'z hayoti davomida faqat tashqi dunyoni, ya'ni tabiat va jamiyatnigina bilib qolmasdan, balki o'zining ruhiy, ma'naviy dunyosini ham bilib boradi. Bilish - insonni tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy ma'naviy faoliyat turidir.

Bilish - moddiy va ma'naviy borliqning inson miyasidagi muayyan maqsadga qaratilgan faol aks etishidir. Aniq fanlar dunyoni turli tomonlarini ularning qonuniyatlarini va xususiyatlarini o'rganadi va ochib beradi. Bu to'g'rida turli qarashlar mavjud. D.Yum bilishning manbai sub'yektiv sezgi va idroklarimiz biz o'z sezgi va idroklarimiz chegarasidan tashqarida nima borligini bila olmaymiz.

I.Kant – ob'yektiv borliqni tan olib, u predmet va hodisalari “narsalar o'zida”ga bo'ladi. “Narsalar biz uchun”ni inson biladi, bu insonni qurshab turgan hodisalar, narsalar.

“Narsalar o'zida”ni inson bila olmaydi. Bu erkinlik, o'lmaslik, xudo va shu kabilar. Kant bilish nazariyasini birinchi bo'lib falsafiy muammo sifatida, har tomonlarga qarab chiqqan faylasufdir.

V.Gegel (Hegel) – inson bilishini mutloq ruhning inson qiyofasida o'z – o'zini anglashidir deydi.

L.Feyyerbax – dunyo insondan va uning ongidan tashqarida mavjud, inson bilish tabiatning uning sezgilari va tafakkuridagi to'g'ri in'ikosidir deydi.

Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy – inson tabiat va jamiyatni hamda o'zini bilishga qodir, inson bilishi sezgi va idroklardan boshlanib, tafakkurga tomon rivojlanib boradi. Inson aqli – faol, u bilishning asosiy qurolidir. Ular inson bilishi ma'lum narsalardan noma'lum narsalar tomon rivojlanib boradi deb ko'rsatadi.

Ingliz F.Bekon (XVII – XVIII asr) – inson bilishi sezgilardan boshlanadi, bilishning manbai tajribadir. Fr. Dekart – birdan – bir to'g'ri bilish – tafakkurdir. Fr. Didro, Gelbax, Gelvetsiy, Volter, Laretri – sezgilar tafakkurning asosidir, quyi bosqichidir. Tafakkur esa eng yuqori bosqichidir.

Ilmiy bilish – oddiy bilishdan farq qilib, u borliqdagi predmet va hodisalarning qonuniyalarini, uning mohiyatini bilishdir.

Hissiy bilish – insonning his qilishi, sezgi a’zolari orqali predmet, hodisalari, ularning tashqi tomonlarini, belgi va xususiyatlari bilishdir. Bu bilish xayvonlarga ham xos va farq ham qiladi.

Mantiqiy bilish – insonning predmet va hodisalari tafakkur orqali umumlashtirib, mavhumlashtirib, konkretlashtirib, ulari fikrda bilishdir. Induktiv bilish – o’z tabiatiga ko’ra, hech bir bevosita hissiy idroksiz va mantiqiy muhokamasiz biror bir yangi tasavvurlar yoki yangi fikming birdaniga, kutilmaganda tug’ilishidir.

G’oyibona bilish – kishi uzoq masofadan turib sodir bo’lgan yoki sodir bo’ladigan hodisa va voqeani bilishi, his qilishidir. Hozirgi uch mexanizm fanda ma’lum emas.

Ijtimoiy bilish – insonning jamiyat va uning qonunlarini bilishidir.

“Gnoseologiya” grekcha so’z bo’lib “gnosis” - bilish, “logos” - nazariya, ya’ni bilish nazariyasi, bilish to’g’risidagi ta’limot ma’nolarini anglatadi. “Gnoseologiya” atamasi falsafaga nisbatan yaqinda (1854-yilda), shotland faylasufi J.Ferer tomonidan kiritilgan bo’lsa-da, biroq u to’g’ridagi bilimlar Zardo’sht, Suqrot, Aflotun va Aristotel davrlaridayoq shakllana boshlagan edi.

Kishilarda voqelikni abstrakt – fikriy aks ettira oladigan qobiliyat asosida paydo bo’ladigan hamda rivojlanadigan in’ikosining dastlabki va yetakchi shakli tushunchadir. Bilish jarayonida tushunchaning asosiy vazifalaridan biri shuki, u ma’lum guruhlardagi narsalari ba’zan ma’lum, umumiy, muhim belgilariga ko’ra umumlashgan holda ajratib aks edi. Unga quyidagicha ta’rif berish mumkin: tushuncha abstrakt tafakkur shakli (yoki turi) sifatida ba’zi narsalari umumlashtirish va shu narsalar uchun umumiy bo’lgan belgilar yig’indisini fikran ajratish natijasidir.

Insonning abstrakt - fikrlash qobiliyati tushunchalar bilan birga voqelikni aqliy o’zlashtirishning boshqa shakllarini ham o’z ichiga oladi. Klassik formal mantiq faniga ko’ra, tafakkurning muhokama yuritish (hukm) va xulosa chiqarish

shakllari ham borligi ma'lum. Hukm – fikming shunday shakliki, uning yordamida tushunchalaring haqiqatga mosligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.

I.2. O'QUVCHINING BILISH FAOLIYATI

Ma'lumki, bilish faoliyatining sub'yekti o'quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olarga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta'limda o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlari bajarishida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchilarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun xarakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bimalol aytish mumkin.

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o'quvchi jalb etilayotgan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; sub'yekt (o'quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni tahliliy reproduktiv, boshqalarda izlanishli, uchinchilarida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri - uning oxirgi natijasi egallangan bilim, malaka va ko'nikmalari xarakteriga ta'sir etadi. O'quvchining bilishi xuddi yetuk ilmiy bilish yo'li kabi faqat o'qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlari o'rganish ularing tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi.

Insoniyatning umumlashtirilgan bilimlari tizimi ta'lim davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi va ular ilmiy haqiqat tashuvchilariga aylanadilar. Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat sub'yektining atrof - muhit bilan o'zaro ta'siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta yaratuvchi xarakteridir. O'quvchilarning ta'lim muassasasidagi bilish faoliyatining xarakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham

moddiylashgan mahsulga ega emas va o'quvchining o'zi hamma vaqt ham his etmaydi - javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib, "men o'qidim, o'rgandim! Adolatdan emas" degan fikni qat'iy takrorlashi bejiz emas.

Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida o'quvchini maktabga, darslarga, o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko'maklashadi.

O'quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o'ziga xos uzoq yo'liga ega bo'lishi mumkin. Ayrim o'quv - harakatlari ta'sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o'qishning yetakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta'sir etadi.

Bilishga qiziqishning ijtimoiy motivlar bilan o'zaro aloqasi jiddiy bo'lib, ular orasida o'qituvchi va o'quvchilar bilan muloqot alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy motivlar keng, uzoqlashgan, istiqbolli, ularing insoniy ifodasi boshlang'ich sinflardayoq paydo bo'ladi ("Ma'lumotli bo'lishni istayman").

Axloqiy motivlar - juda muhim guruh, ularda shaxs shakllanishining jiddiy jihatlar - avvalo odamlarga, faoliyatga, o'zining jamiyatdagi va jamoadagi o'miga nisbatan axloqiy munosabatlari ifodasini topadi.

Muloqot motivlari - yana bir guruh. O'quvchilari o'qishga real undaydi. Umuman maktabga ijobiy munosabat zahirida yotadi.

O'quv motivlari - sof shaxsiy tuzilma, biroq ular predmetlar dunyosidan boshlanadi (A.N.Leontoev), shunchaki hosil bo'lmaydi.

Bilish motivlari - tobora xarakterli guruh, zero u bilish - o'quv predmetiga nisbatan munosabatni ifodalaydi. Bunda tobora ahamiyatli bilishga qiziqish va ehtiyojlar sanaladi. O'quvchiga "yangi narsani bilish", "o'zini bilimga ilgarilashni ko'rish", "ilmga shon'g'ish" o'zi qiziqqan fanning nazariy asoslarini tushunish juda qiziq.

Ta'limning bu motivlarining real ahamiyati ortiqcha baholash, qiyin aynan ular o'quvchilar o'zini o'qish uchun "kashf etadi". Bilishga qiziqish o'quvchining faolligi, ta'limda mustaqilligi asosida yotadi. Maktabga umuman muhabbatni shakllantiradi. Bilishga qiziqish rivojlanishning yanada yuqori bosqichida shaxsining barqaror qirrasini, sifati bo'lib, ko'pincha bilish faoliyatiga izchil intilish bilan xarakterlanadi. Bunday ayniqsa, o'quv materialini mazmunidan kelib chiqadigan rag'batlash va barqarorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim mazmunining bilishga qiziqishni uyg'otuvchi, rag'batlashlariga quyidagilar kiradi: o'quv materialining yangiligi, bilimlar mazmuniga tarixiy yondoshuv, chetlab o'tish, zamonaviy fan yutuqlarini ko'rsatish, bilimlarning amaliy roli, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va o'qituvchi, o'quvchilar munosabatlari va boshqalar.

O'quvchilarning ta'lim jarayonida rivojlanishi to'g'risida to'xtalar ekan, amerikalik psixolog **Dj. Bruner** shunday yozadi: "Biz fanlari dunyoga kichik jonli kutubxonalari keltirish uchun emas, balki o'quvchining o'zini matematik fikrlash, muammolari tarixchi misoli o'rganish, bilim olishda ishtirok etishga o'rgatish uchun o'qitamiz. **"Bilish – bu jarayon, mahsul emas"**.

Ma'lumki, bilish faoliyatining sub'yekti o'quvchi sanaladi, shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega bo'lgan ta'lim markazida uning shaxsi, uning ongi, uning ham o'rganilayotgan **olarga**, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilarga munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari ta'lim jarayoni, o'qitish, ta'lim berishda o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratishgan. Jumladan, **Ibn Sino** ta'lim jarayoni haqida gapirar ekan, ta'limda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi:

- o'quvchiga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib quymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;

➤ bilim berishda o'quvchilarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

➤ o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Beruniy esa o'quvchiga bilim berishda:

➤ o'quvchini zeriktirmaslik;

➤ bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;

➤ uzviylik, izchillik;

➤ yangi mavzulari qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish kerakligini uqtiradi.

Ushbu fikrlardan ma'lum bo'ladi-ki, ta'lim jarayoni o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik.

Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarning boy tajribasini, insoniyatni asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarini egallashni shart qilib qo'yadi.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalari amalga oshirishda o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlari o'rgatadi, o'quv faoliyatida ulari malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o'quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarini shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada, aniq qilib aytganda, butun o'quv jarayonini **rejalashtiradi**, ushbu jarayonda o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni **tashkil etadi**, o'quvchilarga qiyinchiliklari yengib o'tishda **yordam beradi** hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini **tashxis qiladi**.

O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq rag'batlantirish. Bugungi kunda ta'lim berishda o'quvchining yaxshi samarali bilim olishi uchun muhim bo'lgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish

zarurdir. Biz ham boshqa ko'pchilik olimlar, o'qituvchilar singari an'anaviy o'qitishning rolini kamsitish fikridan yiroqmiz, chunki an'anaviy o'qitishning ham o'ziga yarasha afzalliklar mavjuddir. Biroq bir tomondan, fan, texnika, madaniyatning tezkor taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, axborotlarning taboro globallashtirib borishi, boshqa tomondan, bugungi o'sib kelayotgan avlodning har jihatdan erta rivojlanishi – **akselerasiya** o'quv jarayoniga shunday yondashishni talab etmoqdaki, bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning yangi materialni mustaqil o'zlashtirish istagi kabi imkoniyatlari rivojlantirishga qaratiladi.

Rag'batlashning bu turiga o'quvchilar mustaqil ishlarining xilma-xil shaklini, ularning bilish faoliyatining yangi usullarini egallash, ta'limda muammolilik, fan metodlariga jalb etishni o'z ichiga tadqiqotchilik elementlari, turli ijodiy va amaliy ishlari kiritamiz. Mustaqil ishlarning xilma-xilligi va shakllari almashib turishi o'quvchilar faolligini rag'batlashi isbotlab berilgan. Biroq o'quv materiali mazmuni malaka va ko'nikmalari mustahkamlash maqsadida mustaqil ishning qandaydir bitta shakli uzoq muddat qo'llanishini talab qilgani bois bu **stimul**dan hamma vaqt ham foydalanib bo'lmaydi. Ko'pincha, masala yechish (fizika, kimyo, mehnat) jarayonida o'quvchilar yechish algoritmini o'zlashtiradilar. Yechish usullarini o'rganish, shubhasiz, zarur. Biroq bu holda harakatlar takrorlanuvchanligi bilishga qiziqishni mustahkamlash yo'lida g'ov bo'lishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun esa harakat vaziyati, o'qituvchi bilish vazifasi va uni hal etish jarayoniga munosabati bilan yaratgan holat bilan bog'liq stimullar muhim.

O'quvchilarning bilish faolligini oshirishda darsda **o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatlaridan** kelib chiqadigan rag'batlash ham alohida ahamiyatga ega. Gnoseologik va ijtimoiy nuqtai nazardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ta'lim o'quvchilarning bilishga qiziqishiga bevosita ta'sir etadigan munosabatlar bilan bog'liq.

Mazkur masala yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olimlar o'quvchilarning bilish faoliyati hissiy ko'rinishi uchun xos bo'lgan rag'batlar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar hamda o'quvchilar jamoasidagi xususiyatlar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. O'quvchilar faoliyatini o'qituvchi tomonidan

intellektual tartibga solinishi bilishdan quvonish, muvaffaqiyatdan qoniqish uygʻotadi. Oʻqituvchi goʻyo oʻquvchilar bilan teng asosda izlanish ishlarini olib boradi: ular bilan birga reja tuzadi, bilish vazifalarini hal etishning turli yoʻllarini izlashga majbur etadi.

Oʻqituvchining pedagogik ishonтира bilish qobiliyati bilishga qiziqish rivojiga kuchli turtki beradi. Oʻquvchiga, uning bilish imkoniyatlariga ishonish psixologiyada ham, maktab amaliyotida ham isbotlanganiday, nafaqat oʻquvchining bilishga qiziqishi, balki uning maʼnaviy rivojlanishi uchun ham ragʻbatdir.

Oʻqituvchi ishlarining oʻquvchilar tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi, ularing oʻqituvchi tomon harakati ham bilishga qiziqishga taʼsirini oʻtkazadi, taʼlim va oʻqish samaradorligiga koʻmaklashadi. Oʻqituvchi ishonchi doimo oʻquvchilarning oʻsha tomon intilishini keltirib chiqaradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkin:

1. Oʻquv jarayoni yaxlit va hatto har bir dars oʻquvchilarning bilishga, turli sinf va fanlarda namoyon boʻlish xarakteriga koʻra ragʻbatlar turli xil boʻladi.
2. Ragʻbatlarning bir xil tuzilishga egaligi, oʻzaro bogʻliqligi bilishga qiziqishni mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat etadi, shaxsning bilish kuchlari, uning fikrlash, irodaviy, hissiy-bilish jarayonlari faollashini taʼminlaydi.
3. Har bir darsda bilishga qiziqish oʻzining avj nuqtasi, oʻzining koʻrsatkichiga ega, oʻqituvchi buni koʻrishi, diqqat bilan tahlil qilishi muhim, zero bu umumiy maʼnoda darsning samaradorligi koʻrsatkichidir.
4. Oʻquvchilarning bilishga qiziqishlarini tobora istiqbolli yoʻnalishi qiziqishning dars boshidan to oxirigacha izchil oʻsib borishidir, bunda oʻquvchilar ishga berilib qoʻngʻiroqni eshitmaydi va darsdan oʻquv jarayonida qilib ulgurmaganini davom ettirish istagi bilan ketadilar.
5. Darsda bilishga qiziqishning asta-sekin soʻnib borishi uni ragʻbatlaraydi, balki oʻchiradi va har safar qiziqtirishni boshidan boshlash lozim boʻladi.

I.3. INFORMATIKADAN O‘QUVCHILARING BILISH FAOLIYATI

Hozirgi kunda ta’lim sifatini oshirish uchun ko‘pincha o‘quvchi shaxsiga e’tibomi qaratish zarur, ayniqsa informatika faniga, sababi bu fan yosh fan va tezkor sur’atlarda doimiy rivojlanib turuvchi fan. Shu sababli ta’lim muassasalarida bu fanga o‘quvchilarning qiziqishi beqiyosdir.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishning quyidagi asosiy mezonlari mavjud:

1. Har bir o‘quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.

2. Ta’limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o‘quvchi o‘zini shaxs deb sezsин, unga bo‘lgan e’tibomi tuysin.

3. O‘quvchiga tazyiq o‘tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo‘rttirmaslik, bilimlari o‘zlashtirmasligi, o‘zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ulari o‘quvchining shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish.

4. Ta’limda “muvaffaqiyat muhitini” tashkil etish, o‘quvchiga o‘qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, uning o‘z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O‘quvchiga atrofdagilarning har biri o‘zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.

5. O‘quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o‘ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasining o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish faoliyatida o‘quvchilarning **kognitiv** (aqliy), kommunikativ (nutq-muloqotchanlik), ijtimoiy-hissiy va jismoniy-motor rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta’minlash juda muhimdir. O‘quvchining rivojlanishiga sharoit nafaqat sinf xonalarida, balki ta’lim muassasasiga kirishda, yo‘laklarda, sport va dam olish maydonchalarida ham yaratilgan bo‘lishi shart.

Xona va bino – bu o‘quvchining rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan ichki omildir, binodan tashqaridagi sport, dam olish va o‘yin maydonchalari, maktab va boshqa ta’lim muassasasining hududi – tashqi omillar bo‘lib xizmat qiladi.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi muhit ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining yoshi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini to'liq hisobga olgan holdagi eng qulay shart-sharoitlari ta'minlashga xizmat qiladi. Unga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

- O'quvchining salomatligini saqlash omillari: toza havo, toza joy, normal harorat va yorug'lik ta'minlanadigan bino va o'quv xonalari;
- Maktabning o'quvchini noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joy bo'lishini ta'minlash;
- O'quvchilarning harakat, kashf qilish va tajriba qilishlariga rag'bat ko'rsatish, ya'ni maktab hududining barcha joylarida bunga imkon bo'lsin. Masalan, sport, dam olish va o'yin maydonchasida jihozlarning etarli bo'lishi; koridorda turli o'simliklarning o'sishini kuzatish, xonada o'quv fanlariga doir ma'lumotlar, kutubxonada turli kitoblar bo'lishi va shu kabilar;
- O'quvchilarning o'zlari ishlagan barcha narsalar, ashyo va qo'llanmalar o'quvchi ko'ra oladigan, bo'yi etadigan darajadagi masofa va balandlikda joylashgan bo'lishi;
- O'quvchilar o'rtasida hamkorlik va muloqotga rag'bat bildirish, ya'ni darsda kichik guruh va juft bo'lib ishlashlari, darsdan tashqari vaqtda o'yin o'ynashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak;
- O'quvchilarda maktabga tegishlilik hissi, xavfsizlik va erkinlik hissi bo'lishi.
- Turli madaniyatlar mavjudligini his qildirish.
- Sinf xonasi o'quvchining har tomonlarga rivojlanishini ta'minlaydigan alohida mavzular bo'yicha qismlarga bo'lingan va shu har bir qismlar o'z mavzulari bo'yicha o'quvchi uchun kerakli va qiziqarli bo'lgan ashyo, jihozlar, o'yinchoqlar, konstruksiyalar, belgilar, raqamlar, so'zlar va h.k. bilan jihozlanganligi.
- Mebel o'quvchining jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to'siq bo'lmaydigan holda joylashtirilgan bo'lishi, o'quvchi o'ziga tegishli mebelni bemalol harakatlantira oladigan va nogiron o'quvchilar uchun mos mebel ham bo'lishi, shuningdek, o'qituvchi uchun mebel ham qulay bo'lishi kerak.

➤ O‘quvchining idrok etish qobiliyatini rivojlantiruvchi va ijod qilishga undovchi turli shakl va rangdagi materiallar bilan ta’minlash.

➤ O‘quvchilar ko‘rishi va tanishishi uchun narsalar va ma’lumotlari iloji boricha bitta joyga juda ko‘p joylashtirmaslik, bu o‘quvchining ulari ajratib olishiga xalaqit beradi.

➤ O‘quvchiga erkin tanlash imkonini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash.

➤ O‘z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish.

➤ Kundalik qilinadigan ishlari biror jadval shaklida so‘zlar hamda belgilar bilan tasvirlash, uni o‘quvchi ko‘ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo‘yish.

➤ Ota-onalar va maktab o‘rtasida iliq munosabatlari shakllantiruvchi muloqot o‘rnatishga imkon beruvchi muhit yaratish.

➤ Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlari o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish usul va metodlari bilan uzviy bog‘liq. Bunday o‘quv mashg‘ulotlarining shakllari turlicha. Ular orasidan alohida e’tibor dars jarayonida o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligining tadqiqot - izlanish metodlari hamda dialogli shakllariga qaratiladi, shuningdek, ko‘rgazmali, tasviriy, reproduktiv va boshqa metodlar ham qo‘llaniladi. Bunday mashg‘ulotlarning shakl va usullari bevosita shaxs faoliyatiga yondashuv konsepsiyasi va tamoyillariga mos kelib, ular o‘quvchi ichki dunyosi, tafakkuri va shaxsiy hayotiy tajribasini maksimal darajada faollashtirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda o‘quv faoliyatiga rag‘bat uyg‘otish orqali o‘quvchilari bilim egallashga yo‘naltirib, bunday shakl va usullarda tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning shaxsiy bilimi, tajribasi va hissiyotlarini rivojlantirishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib qoladi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim amalga oshiriladigan ayrim noano‘naviy dars shakllarini keltiramiz:

Sho‘ng‘ish darsi - ma’lum bilimlari egallash uchun eng qulay muhitda bo‘lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni faol o‘rganish mashqlaridan iborat.

Musobaqa darsi - o'quvchilarning o'zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlari mustahkamlash mashqlari.

Konsultatsiya darsi - dars jarayonida o'quvchilarning o'zaro hamda o'qituvchining konsultatsiyalarini tashkil etish orqali darsni o'zlashtirish mashqi.

Ijod darsi - o'quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Sinov darsi - o'quvchilarning o'zlashtirishini turli shakllarda sinash tashkil qilinadigan dars.

Shubha bildirish darsi - dars mavzusi bo'yicha qoidalar, xulosalari agar notog'ri deb hisoblansa, nimalar bo'lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o'tkazish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Ijodiy hisobotlar darsi - o'quvchilarning ayrim mavzular bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti.

Umumlashtirish darsi - ilgari o'tilgan mavzular bo'yicha olingan bilimlari umumlashtirish mashqlarini o'tkazish darsi.

Ilmiy-fantastika darsi - o'quvchilarning o'rgangan bilimlari asosida ijodiy xayol, taxminlar o'ylab topishlari mashqini o'tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

Haqiqatni izlash darsi - dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o'quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishni tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o'zlashtirishni ta'minlash darsi.

“Paradokslar” darsi - o'quvchilarning faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida o'rganilayotgan mavzuni har turli “paradokslarga” bog'lab bayon qilish hamda tegishli tahlillar o'tkazish asosida to'g'ri xulosalari aniqlash darsi.

Seminar darsi - yangi dars mavzusiga doir savollar bo'yicha o'quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlari bajarish natijalari to'g'risida ma'lumotlari tinglash orqali sinfdagi barcha o'quvchilar darsni o'zlashtirishlarini va bilimlarini mustahkamlashni ta'minlash darsi.

Ekskursiya darsi - bu darslarda o'quvchilari turli ob'yektlar: muzey, ziyoratgoh, korxona, ustaxona, tabiat ob'yektlari, ilmiy muassasa, kollej, litsey va boshqalarga olib borish va tanishtirish orqali ularing bilimlarini hayot bilan bog'lash

va kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta'minlanadi. Juda uzoqdagi va borish qiyin bo'lgan ob'yektlarga, ular to'g'risida filmlar, turli ko'rgazmali va boshqa materiallar mavjud bo'lgan hollarda, ulari o'quvchilarga namoyish etib, tushuntirish orqali videoekskursiyalar tashkil etish ham mumkin.

O'quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish, ijobiylashtirish va rivojlantirish.

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini ta'lim- tarbiya jarayonida hisobga olish, ularning shaxsiy sifatlarini bilish, tahlil qilishga yakka tartibda yondashishda hozirgi yosh psixologiyasi va pedagogikasining qoidalari va talablaridan kelib chiqiladi. Bunda o'quvchilarning bir-birlariga nisbatan tayyorgarliklari, qiziqishlari va fanlari turlicha o'zlashtirishlari bilan farqlanishini hisobga olish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda o'qituvchilarning ham bir- biridan o'qitish uslubi, o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish bo'yicha farqlanishini hisobga olgan holda har bir o'qituvchining ma'lum vaqt davomida optimal natijaga, ya'ni o'quvchilarning ko'zda tutilgan darajada o'zlashtirishlariga erishish yuzasidan individual yondashuvlari mavjud.

O'quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish asosida shu sifatleri ijobiylashtirish va rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun darsda o'quvchilarga mustaqil vazifalar berish, ularning mustaqil xulosalar chiqarishlarini, bir- birlaridan o'rganishlarini tashkil qilish, ularning o'qishlari uchun qulay muhit yaratishga alohida e'tibor berish talab qilinadi.

Informatikani o'qitishning asosiy prinsiplari:

Ilmiylik prinsipi - informatika o'qitish mazmunining ilmiy bo'lishi, informatikaning hozirgi ahvoli va uning rivojlanishini ob'yektiv aks ettirishni ifodalaydi. Mohiyati o'qitish mazmuni va o'qitish usullari hozirgi paytdagi informatika fani saviyasi va talablariga mos kelishini ta'minlashdan iborat.

Tarbiyaviylik prinsipi - o'quvchilarga fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, yangi bilimlari o'zlashtirishga harakatini, ulari egallash va mustaqil kengaytirish olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi, shu bilan birga ularda tafakkumi shakllantirish,

informatik tushuncha va tasavvurlar bilan boyitish, hotira va diqqatni rivojlantirish, ijodiy tafakkumi tarbiyalash kabi ishlari amalga oshirishni talab etadi.

Ko'rgazmalilik prinsipi - informatika o'qitishning eng muhim prinsiplaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning chuqur va puxta bilim olishlari uchun asosiy sharoitlari ta'minlashga xizmat qiladi.

Onglilik, faollik va mustaqillik prinsipi - o'quvchilarning fan ma'lumotlarini, o'quv materialini egallashi, uni chuqur fikrlay olishi, bilimlari yangi sharoitlarda amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi, bilimlari ishonchga, amalda qo'llanmaga aylanishi sifatida tushuniladi.

Puxtalik prinsipi - o'quvchilarning ta'limni muvaffaqiyatli davom ettirishlari uchun, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ulari qobiliyatlarini rivojlantirish amaliy faoliyatga tayyorlash uchun zarur.

Tabaqalashtirish - o'qitishda o'quvchilari o'z bilim saviyasi va qobiliyatlariga ko'ra guruhlariga ajratgan holda, tabaqalarga bo'lingan holda o'qitish nazarda tutiladi.

Informatika darsligi, o'quv qo'llanmasi - dastur va didaktika talablari bilan aniqlanuvchi o'qitish maqsadlariga mos keluvchi Informatika bo'yicha bilimlar asoslarini bayon etuvchi kitob hisoblanadi.

Darslikka qo'yiladigan talablar:

- a) o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi;
- b) informatika bo'yicha ma'lumotlari sistemali va ilmiy bayon qilishi;
- v) uslubiy nuqtai nazardan ketma-ket joylashtirilgan yetarli sondagi turli xil masala va mashqlari o'z ichiga olishi kerak.

Didaktik materiallar - mustaqil va nazorat ishlari matnlari, testlar va ulari amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar hamda javoblari beradi.

O'quv qo'llanmaning ko'rgazmaliligiga qo'yiladigan talablar:

- a) bilish vazifasi shundan iboratki oddiydan murakkabga boriladi, o'quvchilar faoliyatini ko'rgazmalilik vosita va usullari bilan boshqaradi, nazorat va kommunikativ amallari bajarishga imkon beradi;

b) intrpretasion funksiyasi, turli xil belgi va rasmlar orqali mavzu va tushunchalar konkretlashtiriladi;

v) estetik vazifalari- uning ko‘rinishi va bezalishi o‘quvchilarda go‘zallikni va estetik did kabi tuyg‘ulari uyg‘otishi uchun xizmat qilishi zarur.

Didaktik materiallar o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quvchilarning masalalar yechish bo‘yicha mustaqil ishlarini, individual va frontal ravishda kursning mavzulari bo‘yicha tekshirish nazorat ishlari uchun materiallari o‘z ichiga oladi.

Informatika bo‘yicha **spravochniklar** va ma’lumotlar, informatikadan adabiyotlar ma’lumot olish uchun samarali Informatika o‘quvchilarning kundalik o‘quv faoliyati uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanishga imkoniyat yaratadi.

O‘qitishning texnik vositalari - kinofilm, diafilm, diapozitiv, kodopozitiv kabi ko‘rgazmalilik vositalari va ulari ekranga tushiruvchi kinoapparat, diaproyektor, epidiaskop kabi asboblarni kirib, bunga yana teleradio, videoaudio vositalar ham kiradi. Bu ekran vositalariga EHM kompyuterlari ham kirib, darslari jonli qiziqarli o‘tilishini ta’minlash uchun qo‘llaniladi.

Texnik vositalari o‘qitishda qo‘llashning asosiy xususiyati- o‘quvchilari o‘quv vaqtidan unumli foydalanishga, bilimlari ko‘rgazmali ravishda egallab olishlari uchun imkon berishi hisoblanadi.

Dars – bu mantiqan tugallangan, butun vaqt bilan chegaralangan o‘quv-tarbiya jarayonining qismidir.

Informatika darsining belgilari:

- 1) Ta’lim va tarbiya vazifalari hal qilinadi;
- 2) Konkret o‘quv materialini muhokama etiladi;
- 3) Maqsadlari amalga oshirish uchun mos o‘qitish usullari tanlanadi;
- 4) O‘quvchilarning jamoasining ma’lum tarzda faoliyati tashkil etiladi.

Informatika darslariga qo‘yiladigan asosiy talablar:

1. Darsda asosiy didaktik (o‘quv) maqsadining mavjudligi. Bunda bir necha masalalarga e’tibor qaratiladi:

a) yangi materialni o'rganish (tushunchani shakllantirish, qonun va algoritmlar o'rnatiladi);

b) o'rganilayotgan bilimlari mustahkamlash (takrorlash, masalalar yechish)

2. Darsda ta'limiy vazifalar bilan birga tarbiyaviy masalalar ham hal qilinadi.

Bunda:

a) o'quvchilar qiziqishini uyg'otish va saqlash;

b) o'quvchilarning o'qishga ma'suliyatini oshirish;

c) Informatikani o'rganishga ehtiyoj va ko'nikmalari tarbiyalash.

Bu talab konkret matematik tushunchalari o'zlashtirishda quyidagilari ko'zda tutadi:

- bilimlari o'z so'zlari bilan bayon etish;

- undagi asosiy aniqlangan tushunchalar mohiyatini o'zlashtirish;

- ta'rif bo'yicha uni tanib olish

3. O'quv materialining asoslangan holda tanlanishi. Bu quyidagilari nazarda tutadi: 1) asosiy o'quv maqsadining mazmunga mos kelishi;

2) yetarli hajmda o'quv materialining mavjudligi;

3) konkret va abstrakt materialning optimal munosabatda bo'lishi;

4) nazariy va amaliyotning o'zaro aloqasining yoritilishi muhimdir.

4. Darsda o'quvchilar faolligini oshiruvchi o'qitish usullarini qo'llash. Bunda quyidagilarga e'tibor berilishi lozim:

a) o'quvchilarning o'zlari navbatdagi muammolari ifodalay olishi;

b) kiritilayotgan tushunchalari ta'riflashni amalga oshirishlari zarur. Bunda o'quv materialini qismlarga ajratish hamda o'quvchilar oldiga xususiy o'quv masalalari qo'yib borish talab etiladi.

5. Darsning tashkiliy puxtaligi talabini amalga oshirish uchun quyidagi zaruriy shartlar bo'lishi zarur:

a) o'qituvchi dars materialini erkin bilishi;

b) har bir navbatdagi savol uslubiyatini bilishi, uni o'rgatish usul va vositalarini egallagan bo'lishi;

c) o'quvchilar individual xususiyatlarining taqsimoti to'g'ri yo'lga qo'yilishi, sinf taxtasi va daftardagi mazmun va yozuvlar joylashishini hisobga olish, darsda ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanish, uning tayyorgarligini yo'lga qo'yish.

Informatika bo'yicha o'quvchilar bilimini baholash va tekshirishning asosiy maqsadlari - o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish sifatini hamda predmet bo'yicha dasturda ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalari egallash saviyasini tekshirishdan iborat.

Bu uch xil tekshirishni: joriy (uy vazifasini tekshirish, og'zaki so'rash, kundalik baho qo'yish va h.k.), oraliq nazorat yoki davriy nazoratlar (nazorat ishlari, mavzu yoki bob bo'yicha nazorat ishlari va h.k.), yakuniy nazorat chorak uchun yoki yarim yillik va yillik nazoratlarini o'z ichiga oladi.

Oraliq nazorat uchun asosan "Didaktik materiallar" dan foydalangan holda ish olib borish ko'zda tutiladi.

Yakuniy nazoratlar yakuniy nazorat ishlari yoki chorak uchun og'zaki so'rash, bitirish imtihonlar (testlari) o'z ichiga oladi.

Bilimlari baholash tartibi darajalar:

1-daraja- Informatikadan davlat ta'lim standartida belgilab berilgan bilimlari o'zlashtirishning minimal darajasini bajarganlar "past" daraja hisoblanadi.

2 –daraja – reproduktiv darajada bo'lib, DTS da belgilab berilgan bilimlari o'zlashtirishning minimal darajasidan yuqori bo'lganlari "o'rta" baholanadi.

3-daraja – rekonstruktiv darajada qo'llaniladigan DTS dagi bilimlarning imkoniyat darajasi talablariga javob beradiganlari "yuqori" baholanadi.

4- daraja – DTSda belgilab berilgan bilimlari o'zlashtirishning imkoniyat darajasiga muvofiq keladigan va uni ijodiy qo'llay oladiganlar "o'ta yuqori" baholanadi.

Reytingi 100-96% bo'lganlar - o'ta yuqori, 86-95% bo'lganlar – yuqori, 81-71% bo'lganlar-o'rta, 70-56% bo'lganlar – past baho bilan baholanadi, --0-55% bo'lganlar esa attestasiya qilinmaydi.

II- BOB. INFORMATIKADA O‘QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI FAOLLSHTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI LOYIHALASHTIRISH

II.1. INFORMATIKADA O‘QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI FAOLLSHTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Hozirgi axborot globallashuv davrida informatika va axborot texnologiyalari fani o‘quv mashg‘ulotlari interfaol metodlardan foydalanib tashkil etish, talaba-o‘quvchilardagi bilim va ko‘nikmalari, ularing fikrlash qobiliyatini, hozir javoblilik darajasini o‘shirishga sababchi bo‘ladi. O‘quv mashg‘ulotining o‘qituvchi tomonidan rejalashtirilish ko‘zlangan maqsadga, kafolatli natijaga erishish zamin bo‘ladi. Ta’lim beruvchi tomonidan har bir o‘quv mashg‘ulotini yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tassavur etish uchun o‘quv mashg‘ulot jarayonlarini loyihalashtirilib olinishi kerak hamda uni olib borishda texnologik xaritani tuzish lozim. Chunki texnologik xarita katta ahamiyatga ega. Texnologik xaritada ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyati (o‘quv jarayoni) bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo‘llaniladigan vositalar tavsiflanadi.

Har bir informatika fani o‘quv mashg‘ulotlarda interfaol metodlari to‘g‘ri tanlab, undan to‘g‘ri foydalanish o‘tilayotgan mavzuning mazmun - mohiyatini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularing har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy, salbiy tomonlari, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Bu interfaol metodlar tanqidiy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Informatika o‘qitishda didaktik o‘yin texnologiyalari tushunchalarini o‘quvchilarda shakllantirish quyidagicha izohlanadi:

1. Informatika o‘qitishda didaktik o‘yin texnologiyalari to‘g‘risidagi tushunchalarga ega bo‘ladilar.

2. Informatika o'qitishda didaktik o'yin texnologiyalari to'g'risidagi tushunchalari farqlay oladilar.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarining bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ - muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklari engish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlari o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlari o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferentsiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O'qituvchi-pedagog avval talabalari individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ulari ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlari o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularing ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;

2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilinishi;

3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob - axloq normalariga mos kelishi;

4. O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;

5. Mashg'ulotlar davomida didaktik printsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

O'qitish metodi sifatida tadqiqotlar o'quvchilarga inson hatti-harakatiga nisbatan savollar qo'yishni o'rganishga va ularga javoblari esa faktlari jiddiy tahlil qilish yordamida topishga ko'maklashadi.

Tadqiqot usulida o'qitish o'quvchilarda savol qo'yish jarayonida va javob qidirishda qiziqish uyg'otishni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodi bo'yicha o'qitish o'quvchilari amaliy-ilmiy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini ta'minlaydi. Bunday yondashishning maqsadlaridan biri, mustaqil fikrlaydigan va aniq bilim olish tizimiga ega bo'lgan o'quvchilari shakllantirishdan iborat.

Muammolari aniqlashda va berilgan ma'lumotlari tahlil qilish davomida o'quvchilar hissiyotlarga berilishdan chetlanishga va ob'yektiv bo'lishga o'rganadilar. Ular har qanday bilim nisbiy ekanligini, yangi ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan o'zgarishining mohiyatiga tushunib etadilar. O'quvchilar o'zlarining taxminlarini tekshirishni va turli xil axborotlar va mantiqlari qo'llashni o'rganadilar.

O'qitishning tadqiqot usuli, olingan ma'lumotlari tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning yuksak darajada fikrlashlari uchun imkoniyat yaratadi.

Ushbu metod bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'ladilar, yangiliklari tahlil qilishda barqaror malakaga ega bo'ladilar.

Tadqiqot metodi bo'yicha o'qitish muammoni tuzata bilishdan, uni qo'ya bilishdan va ifodalashdan boshlanadi. O'quvchilarga kutilmagan, noma'lum voqea va hodisa tanishtiriladi. Muammo yoki hodisa bilan tanishganlaridan so'ng, ular shu muammoni yechishning yo'llarini yoki hodisani tushuntirish variantlarini taklif qilishlari va savollar berishlari lozim. Agar dars ochiq xarakterda bo'lsa, qaralayotgan muammoni yaxshiroq tushunish va echish uchun axborot manbalarini, ma'lumot va dalillari o'quvchilarning o'zlari topishadi. Ba'zi bir o'qituvchilar o'quvchilarga ma'lumotlari kutubxonadan yoki kompyuterdan izlash vazifasini beradilar. Ba'zi darslarda esa ma'lumotlari, axborotlari o'qituvchining o'zi o'quvchilarga beradi, o'quvchilar bu ma'lumotlari o'rganadilar va qonuniyatni qidiradilar hamda o'zlari ilgari surgan dastlabki gipotezalarini(farazlarini) tekshirib ko'rishga intilishadi, qiziqishadi. Nihoyat olingan dalillarga, natijalarga asoslanib o'quvchilar xulosalar chiqarishadi. Ular o'zlarining gipotezalarini qayta ko'rib chiqadilar, olgan natijalariga asoslanib yanada asosliroq tushuntira oladilar va yangi muammolari qo'ya oladilar va ochishga kirishadilar.

O'qitishning bunday usuli o'z oldiga ikkita maqsadni qo'yadi:

1. Ilmiy metodlari qo'llashni o'rganish va mazmunni o'zlashtirishga yordam berish;
2. Tadqiqot metodidan foydalana olish axborot(informatsiya) yig'ish kabi muhimdir.

Tadqiqot metodining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- haqqoniy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi;
- dalillarga e'tiborli va hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalaydi;
- barcha bilimlarning nisbiy ekanligini tushunishga yordam beradi;
- mantiqiy fikrlashga o'rgatadi;
- yuzaki echilgan masalalar, muammolarga ishonchsizlik bilan qarash munosabatlarini tarbiyalaydi;
- oliy darajadagi fikrlashga turtki beradi;

-nafaqat mazmunni o‘zlashtirishga, shuningdek ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, muammoni echish malakalarining hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Tadqiqot metodining kamchiliklari quyidagilardan iborat:

-ko‘p vaqt talab qiladi;

-o‘quvchidan muammolari yechish va strategik rejalashtirish malakalariga ega bo‘lishda rivojlangan ijodiy tafakkumi talab etadi;

-o‘qituvchi “bilim beruvchi” bo‘lib qolmay, balki undan o‘quvchini mantiqiy asoslangan xulosa chiqarishga mohirona yo‘naltirish talab etiladi.

Har qanday pedagogik texnologiya qo‘llanilishida didaktikaning asosiy va yordamchi tamoyillari (prinsiplari), albatta, amal qiladi:

- ma’lumdan noma’lumga;

-oddiydan qiyinga yoki murakkabga;

-aniqdan mavhumroqqa (abstraktga);

- kuzatishdan nazariy umumlashmalarga;

- umumiy yoki odatdagidan xususiyga yoki noodatdagiga va boshqalar.

Ayrim faol pedagogik texnologiyalar tavsifi haqida ma’lumotlar keltirilganda ularing qiyosiy bahosi oydinlashadi.

Ma’ruza. Ma’ruza o‘qitishning eng keng tarqalgan shakli bo‘lib, pedagogik faoliyatda yetakchi o‘rinni egallaydi. U o‘qituvchi mehnatining oliy shakli darajasida e’tirof etiladi. Uni bir tomonlarga aloqaning ko‘rinishi, deb ham ataladi. Bunda o‘qituvchining faolligi va tinglovchilarning nafaolligi ko‘zda tutiladi. Biroq munozara shaklida bayon etiladigan ma’ruza eng faol pedagogik texnologiya elementidir. Munozarali ma’ruzada tinglovchilarning faolligi yuqori bo‘lishiga erishish mumkin.

Iqtisodiyot o‘quv predmetlarini, odatda, ko‘proq ma’ruzalar tarzida bayon etiladi. Chunki bunday kurslar ko‘proq nazariy yoki umumlashtiruvchi xarakterga tabiatan ega bo‘ladilar. Pedagogik terminologiya nuqtai nazaridan ulari bilish, aqliy umumlashtirish mashg‘ulotlari deb hisoblash mumkin. Bunda metodikaning barcha boshqa metodlari kamroq samarali bo‘lib qoladilar. Ma’ruzani tashkil etish paytida

o'qituvchi o'quv predmetining eng muhim jihatlarini alohida ta'kidlash evaziga muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Ma'ruzada tinglovchilar boshqa samarali metodlar bilan o'qitilgandagi kabi tayyorgarlik (bilim) oladilar. Faol metodika yordamida o'qilgan ma'ruzalar davomida tinglovchilari faollashtirish evaziga o'qitish jarayonining teng huquqli ishtirokchilariga aylantirish mumkin. Bunda o'quv materiali tez va soz o'zlashtiriladi.

Ma'ruzani faol tadbirga aylantirish uchun uning mavzusi va tuzilmasi orasidagi bog'lanishning yechimini topish zarur bo'ladi.

Ma'ruzalar o'quv predmetining bosh masalasi ko'nikma hosil qilish emas, balki bilim o'zlashtirish bo'lganidagina samara beradi.

O'qitishning barcha mavjud masalalarini uch guruhga ajratish mumkin:

- bilimlar;
- ko'nikmalar;
- ko'rsatmalar.

O'qitish masalalaridan kelib chiqqan holda uning metodi tanlanadi. Agar ta'lim jarayonida tavsiflash, yodga tushirish, sanab o'tish, kategoriyalar bo'yicha taqsimlash, ta'riflar keltirish, baholash va tushuntirish kabi didaktik maqsadlar amalga oshirilishi lozim bo'lsa, albatta, ma'ruza shaklidagi o'quv mashg'ulotlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Hayot bilan, kundalik turmush bilan, muhim voqealar bilan aloqadorlikda bayon etilgan ma'ruza materiali oson o'zlashtiriladi. Suzishni yoki avtomobil boshqarishni ma'ruza mashg'uloti yordamida o'rgatib bo'lmasligi ravshan. Shu boisdan, o'quv va ko'nikma hamda malaka egallanishi birinchi o'rinda turadigan faoliyatda ma'ruzaning tutgan o'rne kichikdir. Nazariy bilimlar va dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar ma'ruza yordamida berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruza davomida o'qituvchining xatti-harakatlari, imo-ishoralari, nutq komponentlari muhim rol o'ynaydi. Ma'ruzachi auditoriya bilan yaxshi aloqa o'rnatishi uchun uning dinamik siljib turishi tavsiya etiladi. Ovoz ohangining o'zgarishi va o'rinli pauzalar ham yordamchi organlarga aylanadi. Bayon

mo'tadilligining o'zgarishi, o'rinli kalimalarning galma-gallanishi, qiziqarli ma'lumotlarning bezak tarzida ishlatilishi katta ahamiyatga ega. Ma'ruzaning to'laqonliligi ko'rgazmali vositalardan qanday darajada foydalanilishiga ham bog'liqdir. Rasmlar, jadvallar, plakatlar, diagrammalar, moddiy ob'yektlar va AKTning turli elementlaridan o'rinli foydalanish ma'ruzaning ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi quvvatini oshiradi.

Har qanday ma'ruza tarkiban uch qismdan iborat bo'ladi:

- kirish;
- asosiy qism;
- xulosa.

Ma'ruza turlari pedagogning mahoratiga bog'liq ravishda turfa ko'rinishlar va mazmunga ega bo'ladi. Ma'ruzaning pedagogik samarasi o'qitishning barcha tashkiliy shakllariga qiyoslanganda eng yuqori bo'ladi.

Munozara. Ko'pchilik o'quv predmetlari va ularning mavzulari ta'lim standartlari, o'qitish dasturlari, o'quv rejasi va ta'lim muassasasining o'ziga xosligiga bog'liq ravishda hamda tinglovchilar (bilim oluvchilar) kontingenti bilan aloqadorlikda munozara tarzidagi o'quv mashg'ulotlarini taqozo etadi. Birinchidan, tinglovchilar faolligi ta'minlanadi. Ikkinchidan, shubhali vaziyatlarga o'rin qoldirilmaydi.

Uchinchidan, bilim oluvchilarning istak-xohishlari to'la qondiriladi. Eng muhimi, bunday sharoitda o'quv materiali to'la-to'kis o'zlashtiriladi. Asoslar, xulosalar, hukmlar va tasavvurlar mukammal ko'rinish va mazmunda bo'ladi. Ko'rsatma va ta'kidlarning ishonchliligi yuqori darajada bo'ladi.

Munozara ikki turli bo'ladi:

- boshqariladigan;
- erkin munozara.

Boshqariladigan munozarada o'qituvchining ishtiroki sezilarli darajada bo'ladi, lekin bu ishtirok uning o'quv jarayonidagi hakamlilik mavqeidan oshib ketmasligi lozim. Erkin munozara esa bilim beruvchi va oluvchilarning demokratik tarzidagi ishtiroki bilan o'tkaziladi. Bu har ikki turdagi munozaralarda o'quv haqiqati

birinchi o'rinda turadi. T1miy bilimlar jonli mushohada, abstrakt tafakkur orqali nisbiy va absolyut haqiqat yo'li bilan qo'lga kiritilishini hisobga olinsa, bilish jarayonining taraqqiyotini belgilovchi tushuncha, kategoriya, faraz, xulosa, qoida, nazariya, qonun va qonuniyatlar munozara davomida mazmunan buzilmasligi muhimdir.

Munozaraning natijasini o'qituvchi oldindan loyihalashi lozim. Bunda oralik jarayonlar ikkinchi pozitsiyada turadi. Yakuniy xulosalar ilmiy bilish nazariyasiga zid kelmasligi o'qituvchining kasbiy salohiyati bilan ta'minlanadi.

Erkin munozarani monarxiyaga aylantirmaslik-eng muhim pedagogik vazifadir. Uning o'quv qimmatini boshqariladigan munozaradan kamroq baholab bo'lmaydi.

Munozara mashg'ulotlari uchun quyidagi shartlarning bajarilishi muhimdir:

- reglarentga rioya qilish;
- boshlashdan oldin chuqur fikriy tahlil qilish;
- ishtirokchilarning maksimal miqdordagi sonini qo'lga kiritish;
- o'qituvchining o'quvchilariga nisbatan hukmron bo'lmasligi.

Passiv o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash-aksariyat o'qituvchilar uchun amalda bajarib bo'lmaydigan jarayondir. Ularni jonlantirish uchun:

- savollar beriladi;
- har bir shaxsning xususiy fikri so'raladi;
- to'g'ri javoblar rag'batlantiriladi;
- noto'g'ri javoblar va xatolar to'g'rilanadi va to'ldiriladi.

Munozaraning muvaffaqiyati o'quvchilarning qiziqishi, bilimi, ahilligi, hur fikrliligi va jamoadagi sog'lom pedagogik-psixologik muhitga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Guruhiy ish. Bu so'nggi yillarda Yevropa mamlakatlarida keng ommaviylik tusini olgan o'qitish metodidir. Masalan, Daniyada birorta ham ma'lumot yoki kasb guruhiy ishsiz egallanmaydi. Kam sonli (4-6 nafar) o'quvchilarning qandaydir muhim o'quv tadbirida ishtirok etishi va ularning hamkorlikdagi faoliyati bunday mashg'ulotning samarasini belgilaydi. Bajarilish darajasi va uning sifatini o'qituvchi

nazorat qiladi. Guruhlarga berilgan vazifalar bosqichma-bosqich navbatlanishi ya'ni galma-gallanishi lozim. Guruhlar bir jinsli (o'g'il o'quvchilar, erkaklar yoki qiz o'quvchilar, ayollar) va ikki jinsli (har ikki jins vakillaridan iborat) bo'lishi mumkin. Ta'lim yo'nalishi va pedagogik maqsad hamda vazifalardan kelib chiqqan holda bunday guruhlar xususiy holat uchun shakllantiriladi. Guruhiy ish kengroq joy va siljiriladigan o'quv mebellarini talab qiladi. O'qituvchining nazorati barcha guruh uchun baravar bo'lishi lozimligi ham qiyinchilik tug'diradi.

Muammoli topshiriqlar. Nazariya va amaliyotning birligini ta'minlash - eng murakkab pedagogik vazifadir. Aniq vaziyat va qo'yilgan masalaning mohiyatidan kelib chiqqan holda muammoli topshiriqlar yordamida yaxshi natijaga erishish mumkin. Faktlar va ma'ruza materiallarini o'zlashtirish, topshiriqlar hamda mashq va masalalar yechimida muammoli vaziyat yaratilishi qo'l keladi. Bunda ham kam sonli ishtirokchilardan iborat guruhlar shakllantiriladi. O'quv materiallari guruhlarga alohida-alohida bo'lib beriladi. Yakuniy xulosalar va yechimlar topilgach mavzular guruhlar orasida ayirboshlanadi. Yechimlar va fikrlar xilma-xilligi yuzaga kelsa o'qituvchi bosh hakam tarzida so'nggi va hal qiluvchi so'zni aytadi. O'quv materialining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi bunda o'ta muhim omildir.

Muammoli topshiriqlar o'qituvchidan katta va qiyin mehnatni talab qiladi. Shu boisdan, ularning sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan variantlarini topish va qo'llash murakkab jarayondir.

Loyihaviy topshiriqlar. Biror o'quv materialini atroflicha va chuqur o'rganish uchun bu yondashuv katta samara beradi. O'rganish, tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish va yakuniy qarorga kelish uchun uzoq muddatli loyihalangan reja zarur. Bu tadbirni o'tkazish uchun bazaviy va boshlang'ich tayanch ma'lumotlar talab qilinadi. O'quv predmetini o'zlashtirishning bosqichlarida davriy ravishda tatbiq qilinadi. Bunday topshiriqlar o'quv ijodkorligini oshiradi, mustaqillik sari yetaklaydi.

Loyihalar mavzuning tavsifmi beruvchi kirish qismi, mavzuning muxtasar asosnomasi, faktlar va argumentlarga asoslangan ma'lumotlar yig'indisi hamda xulosa yoki yechimdan iborat bo'ladi.

Rolli o'yinlar (ishchanlik yoki ishbilarmonlik o'yinlari). Bunday o'yinlar muammoli topshiriqlarning bir ko'rinishidir. Sahnalashtirish va obrazli chiqishlar bunday mashg'ulotlarning asosiy belgisidir. Ishbilarmonlik, bilimdonlik, topqirlik, quvnoqlik, hozirjavoblik, ijodkorlik, artistizm, ishchanlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlari namoyish qilishga keng imkon beradi. O'qituvchi har bir o'quvchining salohiyatiga mos vazifa topshirishijuda muhimdir. Birinchi va ikkinchi darajali ishtirokchilar bo'lmashligini ta'minlash ham talab qilinadi. O'quv mashg'uloti hayotdagi aniq vaziyatga ko'proq yaqinlashadi. Yorib o'tishlar texnologiyasi va V.Erxard maktabi. Bu texnologiya menejerlari qayta tayyorlash o'qishlaridan iborat bo'lib, uning maqsadi har bir odamda mavjud bo'lgan (lekin kundalik bir xildagi hayot va ish bilan bo'g'ib qo'yilgan) qobiliyatlari va intilishlarini an'anaviy muammolari yangi muammo sifatida yechish uchun kundalik izlanishlarga aynan uyg'otish hisoblanadi. Bu texnologiya o'quvchilarning fikrlashi va xulqidagi shaxsiy stereotiplari bartaraf qilish, o'z imkoniyatlarini va eskirgan muammolari yangicha yechish yo'llarini ko'ra olishlarini faollashtirish va o'zgartirish bo'yicha ishlab chiqilgan ko'p sonli mashg'ulotlardan iborat.

Bu kurslarning afzal jihatlari-inson omilini ishga solishga qaratilgan bo'lib, maxsus mablag'lar sarflashni talab qilmaydi. erishilgan samara so'nib qolmaydi, ya'ni olingan samara yangi shakl va mazmunda hamda sharoitlarda muntazam kuchayib borishi bilan takror va takror samara olinishini ta'minlaydi. Bu texnologiya alohida yirik yangiliklar yaratishga, hosil bo'lgan favqulodda holatlardan noan'anaviy chiqish yo'llarini izlashga ham qaratilganligi bilan farqlanadi. Bunday yo'nalishdagi 50 dan ortiq kurslar va seminarlar AQShning yuzga yaqin shaharlarida va dunyoning boshqa mamlakatlarining yuzdan ziyod shaharlarida tashkil etilgan va ular muntazam faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu kurslarning tinglovchilari soni 60 ming nafar atrofidadir.

Hamkorlik pedagogikasi. Mumtoz pedagogik qarashlar nuqtai nazaridan o'qituvchi-pedagogik jarayonning sub'yekti, o'quvchi esa ob'yekti, deb hisoblanadi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekti tarzida qaraladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning subyektlari sifatida

tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni tashkil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamfikr, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard va hamboshqaruvchi tarzida faoliyat yuritadilar. Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan, o'quvchilar va o'qituvchilar jamoalari bilan, rahbarlar, otaonalar va keng jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi. Hamkorlik pedagogikasi o'quvchining ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori sifat va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat modellari asosida ta'limni intensivlashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov, Donetsk shahri, Ukraina). Mazkur metodika anchagina ommalashgan pedagogik yondashuv bo'lib, ko'rgazmali sxemalardan iborat tayanch signallar konspektlaridan tarkib topgan. Ularda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborot birliklari aks ettiriladi, ularing orasidagi turli aloqadorliklar ko'rsatiladi hamda abstrakt (mavhum) materialni oydinlashtiruvchi manbalar, misollar va tajribalari eslatish uchun belgilar, simvollar, komponentlar va maqsadlarning ahamiyatliligi bo'yicha tasnifi turlicha bo'lgan shartli belgilardan foydalaniladi. O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat bo'lgan tayanch signallar konspektlaridan foydalanish asnosida turli va o'ziga xos usullar va metodik vositalar ham ishlatiladi.

«Vakolatli ta'lim» texnologiyasi. Ushbu texnologiya 1995-yilda AQShda "Ayollar yetakchiligi" deb nomlangan treninglardan boshlangan bo'lib, ta'limning xalqaro texnologiyasi sifatida 1997 -yildan boshlab Ukrainada shakllandi va keyinchalik Ozarbijon, Gruziya, Qozog'iston. Qirg'iziston, Litva, Moldova, Tojikiston hamda O'zbekistonga tarqaldi. 2002-yilda Afg'oniston, Birma va Indoneziyada tegishli treninglar tashkil etildi. Hozirgi paytda dunyoning turli mamlakatlarida bu texnologiyaning shakllanish va joriy ettirilish jarayonlari davom etmoqda. Ta'limning ushbu texnologiyasini ayni kunlarda mutaxassislar quyidagicha ta'riflaydilar: "Vakolatli ta'lim-genderlik adolati va zo'ravonliklarsiz munosabatlar asosida tashkil etiladigan o'quv jarayoni bo'lib, u bevosita tajriba orqali ta'lim olish yo'li bilan guruhning o'z-o'zini tashkil qilish ko'nikmalarini

shakllantirish imkoniyatlarini beradi". Vakolatlash pedagogikasi ta'lim dasturlarining boshqa turlari bilan ta'limga nisbatan umumiy yondashuvlarga ega. O'zaro faoliyatda ular bir-birini boyitadi va kuchaytiradi. Vakolatlash ta'limini joriy etishning quyidagi tartibi eng maqbul hisoblanadi:

- tasdiqlangan va rasmiylashtirilgan o'quv reja (ayrim o'quv fani, integrativ kurslar yoki ularing tarkibiy mavzulari);

- rasmiylashtirilgan o'quv reja (ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan va rasmiy reja bilan bog'langan darsdan tashqari ishlarning sinfdan va maktabdan tashqari turlari farq qilinadi);

- norasmiy o'quv reja (kutilmagan yoki favqulodda mashg'ulotlar tashkil qilish va ulari ta'lim amaliyotiga alohida reja yordamida joriy etish).

"Vakolatli ta'lim" texnologiyasiga muvofiq mashg'ulotlar alohida tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchi-trenerlar tomonidan tashkil etiladigan va o'tkaziladigan treninglar tarzida amalga oshiriladi.

Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va ma'lum yo'nalishda ta'lim berish (rahbarlik qilish) hamda mashqlar bajarish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi mutasaddi shaxsni trener deyiladi.

Bu interfaol metodlar tanqidiy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Masalan, biz o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi va o'quv mashg'ulotida foydalanilgan interfaol metodlardan birini (assessment) misol tariqasida keltirmoqchimiz.

MAVZU: WINDOWS OPERATIONS SYSTEMS

Technological map

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchilar
I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 daqiqa)	Tashkiliy boshlanish O'quvchilar davomati va darsga tayyorgarligini tekshiradi.	Tinglaydilar
	Mavzuga kirish Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.	Tinglaydilar va yozib oladilar
	Reja savollarini ekranga chiqaradi.	E'tibor qaratadilar
	O'quv faoliyatini baholash mezonlari ma'lum qilinadi.	Tinglaydilar
II-bosqich. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	O'quvchilar bilimlarini faollashtirish Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob o'tkazadi: OT nima? Hozirgi kunda qaysi OT ommabop? OT kompyuterga nima uchun kerak? - Windows OT ni o'qitish bosqichlari haqida bilim, ko'nikma va malakaga qisman bo'lsa ham egamisiz? - Uyingizda kompyuteringiz bormi va unga qanday OT o'qitilgan? - Kompyuteringiz kutilmaganda qayta o'qitishga kelsa mustaqil o'qitilmasizmi?	Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar
	Yangi o'quv material bayoni. Mavzuga doir tayanch tushunchalar bilan	Tinglaydilar.

	tanishtiradi. (1-ilova).	
	BBB texnologiyasi asosida mavzu bayoni olib boriladi	Tinglaydilar va amalda bajaradilar
	Mavzuni mustahkamlash maqsadida FSMU texnologiyasidan foydalaniladi Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa chiqaradi.	Tinglaydilar va yozib oladilar va amaliy bajaradilar E'tibor qaratadilar
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (20 daqiqa)	O'quvchilarning faoliyatiga baho qo'yiladi va rag'batlantiriladi SWOT tahlili asosida	Eshitadi
	Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Mustaqil amaliy bajarib ko'rish vazifasi beriladi
	Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Mustaqil amaliy bajarib ko'rish vazifasi beriladi

Dars boshida o'quvchilarga BBB ya'ni **B-bilaran B-bilishni xohlayman B-bilib oldim** texnologiyasi asosida ularga mavzuni tushuntirishni boshlash kerak. Avvalo texnologiya haqida ma'lumot va uni o'tkazish tartibi haqida tushuncha beriladi va o'quvchilarga daftarlariga jadval chizishlari va unda uchta **B** harfini qo'yishlari aytiladi. Unga birinchi **B** harfiga bugungi mavzuga doir bilgan so'z va atamalarini yozishlari, ikkinchi **B** harfiga bilishni xoxlaganlari va nihoyat uchinchi **B** harfi katagiga esa dars yakunida bilib olganlari yozilishi so'raladi.

B(Bilaman)	B(Bilishni xohlayman)	B(Bilib oldim)
-------------------	------------------------------	-----------------------

Windows 7, 8, 10 versiyasi	Windows so‘zining ma‘nosi (Oynalar ma‘nosini beradi)	Doppix, Unix kabi OS mavjud ekan
-------------------------------	---	-------------------------------------

Bu texnologiya orqali o‘quvchilar yanada ko‘proq ma’lumotlari bilib olishadi. Keyin albatta yangi o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida FSMU texnologiyasidan samarali foydalanish mumkin. Odatga ko‘ra, bunda ham texnologiya haqida ma’lumot beriladi.

Texnologiyaning o‘tkazilish tartibi:

- o‘quvchilar uch guruhga bo‘linadi;
- o‘qituvchi ularga FSMU texnologiyasi mazmuni yozilgan qog‘ozni tarqatadi;
- guruhlar o‘z fikrlarini katta guruhlar orasida himoya qiladilar;
- o‘qituvchi oxirida yakuniy xulosani aytadi;
- o‘qituvchi tarqatgan qog‘ozda shakli quyidagicha:

formati: A4

F-fikringizni bayon eting

S-fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M-ko‘rsatgan sababingizga misol keltiring

U-fikringizni umumlashtiring

Qog‘oz tarqatilgandan so‘ng savol tashlanadi. **Masalan:** Windows OS ning imkoniyatlari yetarli darajada emas.

O‘quvchilar buni isbotlash uchun bo‘lingan guruhleri asosida tayyorgarlik ko‘rib fikrlarini jamoadan turib bir kishi bayon etadi. Aytgan fikrlariga sabab va misol keltiradilar. Agar joiz bo‘lsa amalda ya’ni kompyuterda bajarib ko‘rsatadilar.

Dars yakunida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Bunda SWOT tahlilga asoslaniladi.

SWOT — tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

Strengths — kuchli tomoni;

Weakness — kuchsiz tomoni;

Opportunities — imkoniyatlari;

Threats — foydalanishdagi xavflar, qiyinchiliklar, muammolar.

Guruhlar	Strength s -kuchli tomoni	Weakness - kuchsiz tomoni	Opportunities - imkoniyatlari	Threats - foydalanishdagi xavflar, qiyinchiliklar, muammolar
1	Birdamlik	Fikrlar dolzarb emas	Amaliy ko‘nikma bor	Nazariya yo‘q
2	Fikrlar asosli	Jamoaviy ishlanmadi	Nazariya ifodalanishi dolzarb	Bir yoqadan bosh chiqarilmadi
3	Jamoaviy hurmat	Amaliy ko‘nikma mavjud emas	Bir yoqadan bosh chiqarildi	Fikrlar chiroyli ifodalandi

Shunga ko‘ra butun dars davomida jamoa bo‘lib ishlagan o‘quvchilari baholash amalga oshiriladi. Bunda, butun dars davomidagi faol qatnashgan o‘quvchilari tartibi, o‘quv qurollari, darsga tayyorligi, jamoadan turib o‘zini fikrini e‘lon qilishi, aniq va ravon yetkazishi va jamoaviy harakati inobatga olinadi. Baholanganlar e‘lon qilinadi. Aytishadiku, raqobat-fikrlashni o‘stiradi deb. Qancha ball berilsa o‘quvchilar bir-biridan o‘zarki qilib qizg‘in dars muhitini yaratib berishadi.

II.2. INFORMATIKA DARSLIGIDAGI BA'ZI MAVZULARNI LOYIHALASHTIRISH

O'quvchilarning informatika fanidan bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida 7-sinf informatika fanidan ikkita ("Axborotli olam muammolari va internet", "www va uning tarkibi") mavzu bo'yicha loyihalar tuzildi. Loyiha asosida o'qitish natijasida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari qiyosiy tahlil qilindi. Biz quyida ushbu loyihaning umumiy tuzilishni keltirib o'tamiz.

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

Fanning nomi: "INFORMATIKA".

Mavzuning nomi: "AXBOROTLI OLAM MUAMMOLARI VA INTERNET", "WWW va uning tarkibi"

Ishtirokchilar: 7-sinf o'quvchilari

O'qitishning maqsadi: o'quv fani bo'yicha egallangan bilimlarni chuqurlashtirish maqsadida axborotli olam muammolari va internet bo'yicha bilim, malaka ko'nikmalarni shakllantirish.

Rejalashtirilayotgan o'quv natijalari: axborotli olam muammolari haqida tushuncha oladi; global tarmoq haqida yanada ko'proq ma'lumotlarni o'zlashtiradi; internet tarkibida ma'lumot izlash yo'llarini bilib oladi; internet tarkibidagi www loyihasi va unda ishlash borasida ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Loyihalashtirish faoliyati bo'yicha quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi: muammoni shakllantirish va vazifalarni aniqlash; vazifalarni amalga oshirishdagi usullarni tanlash va ulardan foydalanish; o'z faoliyatini rejalashtirish; ma'lumot manbalarini aniqlash, tizimga keltirish va tahlil etish; natijalarni talab darajasida rasmiylashtirish va kerakli ko'rinishda taqdim etish.

Talabalar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun bilishlari lozim bo'lgan tayanch bilim va ko'nikmalar quyidagilardan iborat:

Quyidagi tayanch bilimlarni bilishi kerak: axborot haqida umumiy ma'lumot; internet tarmog'i haqida boshlang'ich ma'lumot;

Quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak: internetda ma'lumot izlay olish; ma'lumot izlashda samarali usullardan foydalanish; guruhda faoliyat yuritish, hamkorlikda o'qish tartib va qoidalari.

Turlanish belgilari bo'yicha loyihaga tavsif: turi amaliy; **predmet va mazmun jihatdan ko'lami** bir fan bo'yicha foydalaniluvchi monoloyiha; **o'quvchilar o'quv loyiha faoliyatlarini muvofiqlashtirish xarakteri** bevosita; **ishtirokchilar soni** guruh o'quvchilari 2 ta ishchi guruhga bo'linib, har bir ishchi guruhda 5 tadan 8 tagacha ishtirokchi bo'lishi mumkin (o'quvchilar ko'proq bo'lsa, loyiha yo'nalishlarini ko'paytirish mumkin); **bajarish muddati** uzoq muddatli – bir oy davomida;

Loyihani bajarish tartibi: o'quvchilarning sinfdagi dars jarayonlariga bog'liq, mustaqil faoliyatlarida bajariladi, amaliy mashg'ulotda taqdim etib boriladi. Loyiha mahsuli oy oxirida, o'quvchilar va pedagog o'rtasida belgilangan kunda amalga oshiriladi.

Loyihaning baholanishi – ishchi guruhlar tomonidan bajarilgan loyiha quyidagicha baholanadi (guruhning har bir a'zosi uchun): o'quvchilar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida qismlari (maks. ball – 5); hisobot (maks. ball – 5); loyiha taqdimoti va himoya etish jarayoni (maks.ball – 8).

Loyiha asosida o'qitish bosqichlari.

Tayyorlov bosqichi: loyiha bilan tanishish; sinfdagi mashg'ulot vaqtida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish.

Loyihani bajarish bosqichlari: sinfdan tashqari faoliyat davrida.

Yakuniy bosqich: loyiha taqdimoti, loyiha va sinf mashg'ulotida o'quvchilarning loyihalashtirish faoliyatini baholash.

Loyiha asosida o'qitishni boshqarish: sinfdan tashqari faoliyatda.

O'qitish modeliga qisqacha tavsifnoma.

Loyiha asosida o'qitish jarayonida quyidagilar qo'llaniladi:

o'qitish usullari: loyihalashtirish usuli, matn va axborot manbalari bilan ishlash, taqdimot;

o'qitish shakllari: ommaviy, alohida, guruh;

o'qitish vositalari: loyiha topshirig'i, uslubiy ko'rsatmalar, kompyuter texnologiyalari.

O'QUV LOYIHASI: "AXBOROTLI OLAM MUAMMOLARI VA INTERNET"

I. LOYIHA TOPSHIRIG'I

Axborot deyilganda - barcha sezgi a'zolarimiz orqali borliqni ongimizda aks ettirish tushuniladi.

Internet bu butunjahon kompyuter tarmog'idir. U katta va kichik lokal kompyuter tizimlarning o'zaro aloqa bog'lab, global miqyosda axborot almashinuvini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Undagi protokollar tizimi orqali boshqariladigan barcha tarmoqlar bir-biri bilan o'zaro aloqada ishlaydi va foydalanuvchilar uchun ma'lumotni saqlash, izlash, chop etish, ko'chirish, jo'natish va qabul qilish; matn, tovush, foto, grafika, musiqa va boshqa shakllardagi ma'lumotlar bilan interfaol ravishda almashish amallarini bajara oladi. Internet vaqt, makon va geografik chegaralarni bilmaydi, u tun-u kun, har qanday ob-havoda, har qanday davlatda ishlayveradi. Buning uchun zarur texnik ta'minot bo'lsa bas.

Hozirgi kunda internet tarmog'ida ma'lumotlarning ko'payganligi bois har xil qisqa qilib aytganda keraksiz ma'lumotlarga aldanib giperssilklar orqali o'tish avj olmoqda. Bu esa albatta yoshlarni internetdan to'g'ri foydalana olmayotganliklaridan dalolatdir.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo o'quvchilarning axborotli olam muammolari va internet haqida bilish faoliyatini faollashtirish

Vazifalar:

1. Axborotli olam muammolari va internet mavzusida sinkveyn tuzish.
2. WWW va uning tarkibi haqida videtopishmoqni yechish.

Loyihaning maqsadi (nima uchun yaratilayapti) o'quvchilarda axborotli olam muammolari va internet haqida bilish faoliyatlarini yanada oshirish

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija (loyiha mahsuli)
o'quvchilarda mavzuga doir ko'nikmaning shakllanishi

Loyihadan foydalanuvchilar: pedagog-o'qituvchilar va o'quvchilar

Loyihaning tarkibi: Sizga taklif etilayotgan ushbu tarkibiy tuzilish informatika fanidan o'quvchilarning qiziqishini oshirishga ta'sir ko'rsatish

**Loyiha tarkibi va ularning tayyorlanish
muddatlari jadvali***

№	Loyiha tarkibiy bo'limlarining nomi	Tayyorlanish muddati
1	Axborotli olam muammolari va Internet(Sinkveyn)	1 soat
2	WWW va uning tarkibi(Videotopishmoq)	2 soat
3	Sinkveyn tuzish	30 daqiqa
4	Videotopishmoq tayyorlash	30 daqiqa

Izoh:

*—grafikda ko'rsatilgan muddatlar va tarkibiy qismlar namunaviy bo'lib, pedagog va o'quvchilar tashabbusi hamda tanlangan loyiha yo'nalishidan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Loyiha doirasi:

- bajarilish muddati: dars davomida, loyiha qismlari belgilangan grafik asosida;
- ishtirokchilar soni: sinf o'quvchilar 2 ta ishchi guruhga bo'linib, har bir ishchi guruhda 5 tadan 8 tagacha ishtirokchi bo'lishi mumkin.

II. O'QUVCHILAR UCHUN USLUBIY KO'RSATMALAR

Loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich

bajarish uchun ko'rsatma

1. Tayyorlov bosqichi.

1.1. Loyiha mavzusini tanlang, dolzarbligini asoslang va yechishingiz kerak bo'lgan muammoni shakllantiring.

1.2. Loyiha maqsadi, predmeti, ob'ekti va vazifalarini belgilang.

1.3. Loyihalashtirish faoliyati turlari va yechilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni tayyorlang. Ularni yechish usul va vositalarini tanlang.

1.4. Loyiha mavzusiga doir axborot manbalari bilan tanishing (me'yoriy hujjatlar, o'quv adabiyotlari va boshqalar).

2. O'quv faoliyatini rejalashtirish bosqichi.

2.1. Maqsadga erishish ketma-ketligini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing (loyihani ishlab chiqish, rasmiylashtirish, uni taqdimotga tayyorlash, hisobotni tuzish bo'yicha topshiriqlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlang, ularni bajarish va tayyor holatga keltirish muddatini belgilang).

Loyiha bajarilishining ish rejasi

Ishtirokchilarning F.I.SH	Topshiriq	Faoliyat turi	Tayyor mahsul 1ko'rinishi	Bajarilish muddati
*	Loyiha doirasida qatnashchilarni aniqlash, har bir qatnashchining vazifasini belgilash	Qatnashchilar ro'yxati tuziladi, qatnashchilar imkoniyatlariga qarab loyiha uchun tanlangan mavzuga mos texnologiyadan kelib chiqqan holda	Loyihani amalga oshirish rejasi shakllanadi	**

		topshiriq bajarilishi taqsimlanadi		
	Qaysi terminlarni qoʻllagan holda sinkveyn yoki videotopishmoq tuzishni aniqlash	Mavzu mohiyatini aniq tahlil qilgan holda nazariy qism bilan tanishib chiqqan holda topshiriqqa yondashish	Yoʻnalish aniqlanadi	
	Sinkveyn yoki videotopshiriqdan namunadan foydalangan holda topshiriqqa yondashish	Informatika kitobidan izohli lugʻatdan foydalanish, videodars larni tomosha qilish (Camtasia studio dasturida)	Sinkveyn hamda videotopishmoqning dastlabki boshlangʻich koʻrinishi tayyor	
	Sinkveyn hamda videotopishmoqning yakuniy jarayonini tashkillashtirish	Mavzuga mos ravishda sinkveyn hamda videotopishmoqni tuzishda atama terminlarni yigʻish Camtasia Studio dasturida amalga oshirish	Sinkveyn hamda videotopishmoqni tayyor holga kelishi	
	Loyihani rasmiylashtirish	Loyiha ishi natijalarini toʻplash	Sinkveyn hamda videotopishmoqni taqdim etish	

	Loyihalashtirish faoliyati natijalari va loyiha taqdimoti bo'yicha hisobotni tayyorlash	Mavzu dolzarbligi va muammoni asoslab berish, loyihaning maqsad va vazifalarini ko'rsatib berish va boshqalar	Hisobot	
	MS Power Pointda loyiha taqdimotini tayyorlash	Taqdimotni umumiy rasmiylashtirish va uning mazmunini yana bir bor tekshirish, yangi slaydlarni qo'shish va hokazo	Taqdimot Camtasia Studioda videotopishmoq	

Izoh:

* – har bir guruhdagi ishtirokchilar hamda mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda ishtirokchilarning F.I.Sh.lari belgilanadi;

** – bajarish muddatlari tanlangan loyiha yo'nalishi va guruhdagi vaziyatga bog'liq ravishda muayyan holatdan kelib chiqib belgilanadi.

3. Loyihani bajarish bosqichi.

3.1. Kerakli ma'lumotlarni to'plang, tizimga keltiring va tahlil qiling.

3.2. Tadqiqot natijalarini rasmiylashtiring (tayyor holatga keltiring).

3.3. *Yo'riqnomaga muvofiq* loyiha faoliyati to'g'risida hisobot tayyorlang.

4. Loyihani taqdimotga tayyorlash.

4.1. MS Power Point da *taqdimotlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanmadan* foydalangan holda loyiha taqdimotini tayyorlang.

4.2. *Loyihaning og‘zaki taqdimotida guruh a‘zolari o‘rtasida vazifalarni aniqlang.*

5. Ommaviy taqdimot, loyiha himoyasi va baholash. Mahsulning tashqi (ekspert) baholashini ta‘minlang.

2. Loyiha ishi to‘g‘risida hisobotga tayyorgarlik bo‘yicha yo‘riqnoma

1. Siz taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni (1 betdan ko‘p bo‘lmagan matn asosida) ifodalang.

2. Siz hal etmoqchi bo‘lgan muammoni (5-6 so‘z bilan) asoslang.

3. Loyihangizning maqsadi: uning nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo‘lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif orqali) ko‘rsating.

4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma‘noli) ifodalang.

5. Loyihaning ish rejasi (jadval) ni bayon eting.

6. Vazifani yechimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko‘rsating.

7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi xulosalarni shakllantiring.

8. Bajarilgan ish bo‘yicha foydalanilgan manbalar ro‘yxatini tarkiblashtiring.

9. Baholang:

- loyiha sifatini;
- loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o‘tish yo‘llari.

10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining Anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (xohishingizga ko‘ra).

3. Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo‘yicha yo‘riqnoma

MS Power Point da taqdimotga **tayyorlash jarayoni** quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;
- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarning mazmunli tomonlarini tanlash;

- yangi slaydlarni qo‘shish;
- slaydlarni belgilashni tanlash;
- zarur bo‘lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o‘zgartirish;
- slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

Slaydlarni **texnik namoyish etish** quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

Slaydlar *miqdori* (8-12).

Slaydlarning mazmunli ko‘rsatkichlari:

- birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, -o‘quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;

- oxirgi slayd axborot manbasiga bag‘ishlangan;
- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

Slaydlar o‘z-o‘zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi

Agar matn og‘zaki bo‘lsa, quyidagicha bo‘lishi zarur:

- yuqori axborotli;
- bog‘lovchili;
- aniq va qisqa;
- oddiy sintaktikli (...quyidagilarga e’tibor bering, quyida taqdim etilayotgan...

ro‘yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so‘zlari kamroq bo‘lishi)- bularning barchasini ma’ruzachini o‘zi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o‘rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;

- (asosan termin va ta’riflarda) tushunarli, mantiqiy, aniq bo‘lishi zarur. Ommaga taqdim etish oldin matnni tekshirishga erinmang.

Ovoz tiniq bo‘lishi kerak. Taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchining ovozini eshitib bo‘lmaydi, eng yaxshisi ma’ruzachining jonli ovozi hisoblanadi.

Rasmlar aniq va yetarlicha kattaroq bo‘lishi zarur. Rasmlarning o‘lchamini katta qilishga urinmang, faqatgina Siz sifatni yo‘qotasiz.

Videotasmalar taqdimot oynasining uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo‘lishi kerak. Bezaklar chalg‘itishi mumkin.

Jadvallarda ajratuvchi ma'lumotlar aniq ko'rsatilishi, jadvallarning nomlanishi tagiga katta yozuvlarda berilishi zarur. Jadvallarni haddan ziyod ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumot kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi. Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.

Chizmalar bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

4. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- har bir talabalar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida (mavzular bo'yicha) qismlari (eng yuqori 15 ball);
- hisobot (eng yuqori 8 ball);
- MS Power Point loyiha taqdimoti (eng yuqori 7 ball);
- og'zaki taqdimot va loyiha himoyasi (eng yuqori 5 ball).

Bajarilgan loyiha bo'yicha ishni baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Loyiha mazmunini belgilangan maqsadga muvofiqligi	Belgilangan maqsadga loyiha mazmuni mos kelsa, maks. 3 ball
2.	Loyiha: mavzuga oid bo'lgan yetarli miqdorda, sifatli axborotdan iborat	Erishilgan natijalar maqsadga muvofiq kelsa, maks. 5,0 ball: - yangi; - loyiha vazifasini to'liq aks ettiradi; - keng manbalarga asoslangan
3.	Axborotning rasmiylashtirilishi	Agar axborot talab darajasiga muvofiq kelsa: sarlavha, matn tarkiblashtirilgan bo'lsa, 0,5 ball Namoyish etuvchi material (jadval va chizmalarda) bo'lsa, maks.0,5 ball: - ma'lumot mazmunini to'liq aks ettiradi; - standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan

Loyihani MS Power Point da bajarilgan taqdimotini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy rioya etish	Yo'riqnomaga izchilligi bo'lsa, maks. 2,5 ball
2.	Slaydlarni texnik namoyish etish yo'riqnomasiga rioya etish	Taqdimot tayyorlashda yo'riqnomaga rioya etilgan bo'lsa, 1,0 ball
3.	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etish	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etilgan bo'lsa, 1,5 ball

Bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1	Hisobotni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi	Hisobot tuzilmasi yo'riqnomaga muvofiq bo'lsa, maks. 0,5 ball
2	Tanlangan mavzu asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi daliliy isbotlangan bo'lsa, maks. 0,5 ball
3	Yechimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslangan bo'lsa, maks.0,5 ball
4	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarining bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilangan bo'lsa, maks. 0.3 ball
5	Loyiha vazifalarining belgilanishi	Loyiha vazifalari aniq belgilangan bo'lsa, 0,5 ball
6.	Loyihaning ish rejasini ishlab chiqish	Ish reja ishlab chiqilgan yondashuvlarga muvofiq tuzilgan bo'lsa, 1,0 ball
7	Vazifalar bo'yicha loyihaning ish natijalarini keltirish	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalari ishtirokchilarni ko'rsatish bilan, aniq va ravshan keltirilgan bo'lsa, maks. 1,0 ball
8	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilgan bo'lsa, maks. 1,5 ball
9	Foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtirish	Foydalanilgan manbalar ro'yxati bajarilgan vazifalar bo'yicha tarkiblashtirilgan va standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lsa, 0,2 ball
10	Loyiha faoliyatini o'zi baholashi	Tanqidiy baho: - mahsul sifati,

		-loyiha ustida ishlash: har bir ishtirokchi ishining natijaviyligi, qiyinchilik va uni yengish berilgan bo'lsa, 1,0 ball
11	Ilovalarning borligi	Ilovalarda loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallari bo'lsa, 1,0 ball

Bajarilgan loyihaning og'zaki taqdimoti va bajarilgan loyiha himoyasini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Og'zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rioya etish	Loyiha ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanishi; so'zga chiquvchilarni belgilangan vaqtga rioya etishlari (7 – 15 min.); taqdimot vaqtida bo'ladavsizlik holatlariga yo'l qo'yilmasliklari, maks. 0,2 ball
2.	Loyiha himoyasi	Taqdimotda barcha guruh a'zolari ishtirok etgan bo'lsa, maks. 1 ball Javoblar asoslangan, mukammal, aniq bo'lsa, maks. 0,8 ball

III. TA'LIMNING TEXNOLOGIK XARITASI

Ta'lim shakllari. Ish bosqichlari	Faoliyat	
	ta'lim beruvchi	talabalar

Mashg'ulot ga kirish	Talabalarni loyiha faoliyati mohiyati va uni bo'lg'usi mutaxassislik mahoratiga ta'siri bilan tanishtiradi. Mavzularni taklif etadi, loyiha mazmuni to'g'risida ma'lumotlar beradi, ularning sohalarini ifodalaydi, ish turlarini ko'rsatadi, ularning natijalarini aytadi	
Asosiy bosqich	Loyiha mavzusi bo'yicha talabalar bilimini faollashtiradi: tezkor so'rov yoki savol-javob o'tkazadi Evristik suhbat orqali muammoni taqdim etadi: muammoli vaziyatni ifodalaydi va talabalarni ziddiyatlarni aniqlashlari va uni yechish muhimligi, loyiha muammosi va mavzusini shakllantirishga kiritish uchun savollar beradi	Savollarga javob beradilar; ziddiyatlarni aniqlaydilar va uni yechish muhimligi, loyiha muammosi va mavzusini shakllantiradilar
	Talabalar bilan loyiha maqsadi va vazifalarini shakllantirish bo'yicha aqliy hujumni tashkillashtiradi. (Talabalarga kutilayotgan natijani - mahsul va taxminiy iste'molchilarni belgilashni) taklif etadi	Loyiha maqsadi va vazifalarini shakllantiradilar. Loyiha natijasini – mahsul va uning iste'molchilarini aniqlaydilar

	Loyiha topshirig'ini taqdim etadi. U bilan tanishishni va tushunishni tashkillashtiradi. Axborot manbalarini, uni yig'ish va tahlil qilish yo'llarini tavsiya etadi. Loyiha faoliyati natija-larini baholash mezonlari va tadbirlari bilan tanishtiradi	Loyiha topshirig'i bilan tanishadilar. Savollar beradilar
	Loyiha guruhlarini shakllantirishni va loyiha mavzusini tanlash tashabbusini oshiradi	Guruhlarga birlashadilar. Mavzuni tanlash to'g'risida umumiy xulosa qabul qiladilar
	Guruhlarda ishlash qoidasini tushuntirib, topshiriq beradi: - loyiha faoliyati vazifalarini aniqlash va uni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash; -loyiha faoliyati tartibini ishlab chiqish; -loyiha vazifalarini bajarishning yo'l va vositalarini tanlash, uning natijalarini rasmiylashtirish va taqdimot; - ish rejasini tuzish.	Guruhlarda loyiha faoliyatini loyihalashtirish va rejalashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtiradi: loyihani bajarish yo'li va bosqichlarini aniqlaydilar, ishtirokchilar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydilar, hamkorlik shakllarini aniqlaydilar, loyiha vazifalarini bajarishning yo'l va vositalarini, uning natijalarini rasmiylashtirish yo'llarini tanlaydilar. Ish rejasini tuzadilar

Yakuniy-baholash bosqich	Loyiha topshirig'i natijalarini aniqlash bo'yicha va loyiha faoliyatini rejalashtirish yuzasidan rezyume qiladi. Talabalar diqqatini loyiha ish mazmuni va ularni bajarish tartibiga qaratadi. Anketaning birinchi qismini to'ldirishni taklif etadi	Anketalarni to'ldiradilar
--------------------------	---	---------------------------

Loyihani amaliyotda qo'llash natijasida quyidagi samaraga erishildi. Buni quyidagi ma'lumotlardan bilib olish mumkin.

Karmana tumanidagi 1 – umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-a hamda 7-b sinflarida ikkita mavzu bo'yicha mos texnologiyalardan foydalangan holda loyiha topshirig'i berildi va sinflar guruhlarga bo'lindi.

№	Sinf	Mavzu nomi	Qo'llanilgan texnologiya nomi	Natija (son va % larda)
1	7-a	Axborotli olam muammolari va internet	Sinkveyn	15 ta o'quvchi 2 ta guruh 12 ta o'quvchi faol 80%
2	7-b	Axborotli olam muammolari va internet	Sinkveyn	15 ta o'quvchi 2 ta guruh 10 ta o'quvchi faol 66 %
3	7-a	WWW va uning tarkibi	Videotopishmoq	15 ta o'quvchi 2 ta guruh 13 ta o'quvchi faol 86 %

4	7-b	WWW va uning tarkibi	Videotopishmoq	15 ta o'quvchi 2 ta guruh 12 ta o'quvchi faol 80 %
---	-----	----------------------	----------------	--

Natijalardan ko'rinib turibdiki, videotopishmoq texnologiyasidan foydalanganda darsda o'quvchilarni qiziqtirish va ularni bilish qobiliyatini oshirishga ko'proq erishildi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, hozirgi vaqtda zamonaviy o'qituvchi avvalarbor o'z ustida ishlashi kerak. Ayniqsa, informatika fani o'qituvchilari. Sababi informatika fani kuniga, soatiga, minutiga va hatto sekundiga yangilanib turadigan fan. Texnika hozirda juda ham jadallashib bormoqda. O'quvchilari biror yangilik bilan diqqatini tortib hayratlantirish mushkul bo'lib qoldi. O'quvchilari fanga nisbatan qiziqishini yanada oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslari yanada noan'anaviy o'tishga intilish kerak. Har xil savol-javoblari maxsus mos keladigan texnologiyaga qo'llab iloji boricha butun sinfni qamrab olish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Oddiygina Power Point taqdimot tayyorlovchi Office dasturida ham bir-biridan qiziq animatsion tarzda boshqotirmalari o'quvchilar e'tiboriga havola etish mumkin. Yoki darsni ma'lum qismida texnika yangiliklariga oid videolari qo'yib berish ham o'quvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida aytganimizdek, o'qituvchi doimo izlanishda bo'lishi kerak sababi u ziyoli qatlam vakilidir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda bilish faoliyati, o'quvchining bilish faoliyati, informatika fanidan o'quvchilarning bilish faoliyati, informatika fanidan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish masalalari ilgari surilgan hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi informatika darsligidan "Axborotli olam muammolari va internet" va "WWW va uning tarkibi" nomli ikkita mavzu loyihalashtirilgan holda o'quvchilarga etkazib berilishi va ularda mavzuni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan omillar qiyosiy tahlil qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isoqov I., Qulmamatov S.I. “Informatikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanidan ma’ruza matnlari, Guliston sh., 2014 y.
2. Falsafa asoslari. T.: «Sharq», 2005 y.
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. T.: 2004 y.
4. Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma’ruzalar matni. Samarqand, SamDU nashri, 2003 y.
5. Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2005 y.

INTERNET MANBALARI:

1. WWW.GOOGLE.RU
2. WWW.VIKIPEDIYA.UZ
3. WWW.REFERAT.UZ
4. WWW.ZIYONET.UZ